



MOLIYA BOZORI ISHTIROKCHILARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI

THEORETICAL ISSUES OF ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF FINANCIAL MARKET PARTICIPANTS

¹*Isroilov Bohodir
Ibragimovich, ²Akbarov
Mirg'ani Askarovich*

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.,
²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada moliya bozori ishtirokchilarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy masalalari hamda uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati o'rganilgan. Iqtisodiy jarayonlarda yuz berayotgan salbiy hodisalar mazmuni va ko'lamini tahlil qilish orqali mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy mexanizmlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Eng. - The article examines the theoretical issues of ensuring the economic security of participants in the financial market and its significance for sustainable economic development. It justifies the necessity of analyzing and assessing the nature and scope of adverse events occurring in economic processes to ensure the country's economic security and to utilize new mechanisms to counter threats.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *moliya, kredit, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, iqtisodiy o'sish.*
❖ *finance, credit, economic security, financial security, economic growth.*

Kirish.

Iqtisodiy xavfsizlik hozirgi kunda nafaqat davlat manfaatlariga, balki har bir iqtisodiy subyekt manfaatlariga ham ta'sir qiladigan muhim holatdir. Chunki mamlakat iqtisodiyotidagi tebranishlar yoki inqiroz har bir subyekt faoliyatini salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga transformatsiyalashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodiy salohiyatini o'rganish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda investitsiyalar va innovatsiyalarning o'rnini baholash, iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari hamda ularni bartaraf etish

masalalarini nazariy-amaliy o'rganish va tadbiq etish zarur.

Mamlakatni rivojlantirish hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash" ustuvor g'oyalardan biri sifatida belgilangan [1].

Iqtisodiyotning real sektori va innovatsion sohada rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan maqsad mamlakatda iqtisodiy va milliy farovonlik o'sishini ta'minlash, shuningdek, har bir subyektning farovonligini oshirishdir.

Mamlakatning zamonaviy moliyaviy tizimiga va moliyaviy xavfsizligiga "xufyona iqtisodiyot", "korrupsiya", "kapitalning chet elga oqimi" va "soliqlarni noqonuniy

minimalizatsiya qilish uchun ofshorlardan foydalanish" kabi holatlar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelayotgan mazkur salbiy hodisalarning ko'lamini baholash natijalari mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligi ta'sir qiluvchi tahdidlarga qarshi kurashishda zamonaviy mexanizmlar ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ichki va tashqi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash ularga qarshi kurashishning yangi usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan mazkur yo'nalishning nazariy va amaliy masalalari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xususan, A.N. Larkov tadqiqotlarida moliya-kredit sohasida jinoyatlar soni boshqa iqtisodiy sohalarga qaraganda ancha yuqoriligi ta'kidlanadi [2].

V.D. Larichev, O.V. Zimin, V.A. Bodrov fikriga ko'ra, moliya-kredit tizimi jinoyat daromadlarini legallashtirish yo'nalishidan kam himoyalangan. Bu esa tizimga noqonuniy mablag'larning kirib kelishi, ularning qonuniy iqtisodiyotga singdirilishi va natijada iqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi omillar kuchayishiga olib keladi. Mazkur holat moliyaviy institutlar ishonchliligi, mijozlar o'rtasidagi teng raqobat va umumiy iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi [3].

A.G. Xabibullinning ta'kidlashicha, bank sohasida yuz berayotgan jinoyat holatlari davlatning pul-kredit tizimini izdan chiqarishi mumkin [4].

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarida davlat tomonidan e'tiborga olinishi zarurligi [5], hududlar iqtisodiy xavfsizligini monitoring qilish uslubi o'tirining o'ziga xos jihatlari [6], AQShda iqtisodiy va milliy xavfsizlikni ta'minlash muammolari hamda uning oqibatlarini, iqtisodiyotlarni globallashtirish va

raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari masalalari [7] ham olimlar tomonidan o'rganilgan.

Birinchi guruh olimlar o'z tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlik masalasiga huquqiy oqibatlar nuqtai nazaridan yondashgan. Ushbu tadqiqotlarda moliya-kredit tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirish mexanizmlari, ularning qo'llanilish usullari va iqtisodiy xavfsizlikka yetkazadigan zararlari o'rganilmagan.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilar esa ushbu muammoning iqtisodiy jihatlari umumiy tarzda baholash bilan cheklangan. Biroq ular mazkur jarayonning tipologiyasi, iqtisodiyotning globallashtirish va raqamlashtirilishi natijasida yuzaga keladigan o'ziga xos xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun empirik tahlil, ekonometrik modelashtirish va sifatli baholashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy o'sishga erishish uchun rag'batlantiruvchi omillar bilan bir qatorda, davlatning tegishli organlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash salohiyatiga ega bo'lishi va xo'jalik yurituvchi subyektlar, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'lida faol harakat qilishi zarur.

Iqtisodiy xavfsizlik — milliy xavfsizlik konsepsiyasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U har qanday davlatning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, barqaror rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish, samarali bank-moliya tizimini shakllantirish va ichki hamda tashqi tahdidlarga qarshi barqarorlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, XXI asr boshlarida tezlashib borayotgan global iqtisodiy integratsiya xalqaro iqtisodiy

munosabatlarni kengaytirish, jahon moliyaviy bozorlarida operatsiyalar va tashqi qarz hajmining oshishi, xorijiy valyuta va investitsiya oqimlarining faollashuvi bilan tavsiflanadi.

Mamkakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nafaqat iqtisodoyotni himoyalash, barqaror rivojlanish darajasiga, balki xalqaro darajadagi murakkab siyosiy vaziyatlarga ham bog'liqdir. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik sohalarini puxta anglaydigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi "milliy xavfsizlik" tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. "Milliy xavfsizlik" atamasi zamonaviy dunyo hayotiga mustahkam kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylangan. Masalan, AQSh iqtisodiy xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi va bu borada milliy xavfsizlik doktrinasini, konsepsiyasini hamda strategiyalarini ishlab chiqmoqda.


Milliy xavfsizlik — bu murakkab, ko'p bosqichli funksional tizim bo'lib, unda shaxs,

jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlar ta'sir qiladigan o'zaro aloqalar va qarama-qarshiliklar jarayoni kechadi. Shu bilan birga, bu tizim doirasida ichki va tashqi muhit omillari, boshqaruv tizimining harakatlari va boshqa elementlar o'zaro doimiy ta'sirchanlikda bo'ladi.

P.G. Nikitenkoga ko'ra, milliy xavfsizlik tizimi unga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar majmuasidan iborat bo'lib, uning asosiy vazifasi — shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini turli xil tahdidlardan himoya qilishdir [8].

Milliy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismi — bu iqtisodiy xavfsizlik bo'lib, u uning moddiy asosini tashkil etadi. "Shaxs — jamiyat — davlat" konsepsiyasining har bir elementi bir vaqtning o'zida xavfsizlikning ham obyekti, ham subyekti sifatida qaraladi. Davlat esa xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy institutsional kuch sanaladi.

C. Melaning fikriga ko'ra, davlatning iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi tartibga soluvchi roli 1-rasmda keltirilgan shaklda aks ettirilishi maqsadga muvofiq.



1-rasm. Davlatning iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi tartibga soluvchi rolining tavsifi [9]

Milliy xavfsizlik va uni ta'minlash masalasini iqtisodiy jihatlarni chetlab o'tib o'rganish mumkin emas. O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari, uning hozirgi holati va yechimini topish

zaruriyati olimlar hamda jamoat e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. Bunday e'tibor tasodifiy emas, chunki muammoning mohiyatini ochib berish, haqiqiy tahdidlarni aniqlash, ularni bartaraf etishning ishonchli va

samarali usullarini taklif qilish juda muhimdir. Har qanday davlatning milliy manfaatlari faqat yetarli iqtisodiy imkoniyatlar va barqaror iqtisodiy rivojlanish mavjud bo'lganda ta'minlanishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik umumiy milliy xavfsizlik tizimida hal qiluvchi o'rin egallashini ta'kidlash zarur.

Milliy iqtisodiyotning barqaror va dinamik rivojlanishi, uning ichki hamda jahon bozorlarida samaradorligi va raqobatbardoshligi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat mustaqilligining kafolati, jamiyatning barqaror va samarali faoliyat yuritishi, muvaffaqiyatga erishishining shartidir. Chunki iqtisodiyot jamiyat, davlat va shaxs faoliyatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi, shuning uchun milliy xavfsizlik tushunchasi iqtisodiyotning hayotiyliigi va uning ichki hamda tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash eng muhim milliy ustuvorliklardan biridir.

Xulosa va takliflar.

Davlatning investitsiya va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishi; real iqtisodiyot manfaatlariga javob beradigan barqaror bank tizimini yaratish bo'yicha

choralar ko'rish; kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun korxonalarning uzoq muddatli kreditlardan foydalanishiga ko'maklashishi va sanoatni tarkibiy qayta qurishning maqsadli dasturlarini amalga oshirishi kabi tadbirlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning mustaqilligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Bu xavfsizlik nafaqat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va ishonch muhitini yaratadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik orqali davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ichki hamda tashqi tahdidlarga qarshi barqaror himoya tizimini shakllantirish imkoniga ega bo'ladi.

Bugungi raqamlashtirish davrida moliya-kredit bozorlaridagi jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bu sohada zamonaviy mexanizmlar va qonuniy chora-tadbirlarni takomillashtirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni yanada mustahkamlash mumkin. Natijada, davlat ijtimoiy sheriklik va demokratik boshqaruv mexanizmlari asosida barqaror va xavfsiz iqtisodiy muhit yaratishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
2. Ларьков А.Н. Экономическая преступность: Сб. науч. тр. / ред. коллегия А.Н. Ларьков, Т.Д. Устинова, Е.В. Фирсова., М., 2000. С. 11.
3. Ларичев В.Д., Зимин О.В., Бодров В.А. Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с легализацией (отмыванием) преступных доходов: учеб. пособие. М.: ВНИИ МВД России, 2008. С. 68.
4. Хабибуллин А.Г. Особенности преступности экономической направленности в кредитно-финансовой сфере // Вестн. Акад. экономич. безопасности МВД России. 2009. № 11. С. 5.
5. Исроилов Б.И. (2019). Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб масалалари. Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари, https://tsue.scienceweb.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/131

6. Митяков Е.С. Развитие методологии и инструментов мониторинга экономической безопасности регионов России. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. 2018 г. Н.-Новгород.

7. B.I Isroilov, B.B. Ibragimov, B.J. Ibrohimov. Problems of ensuring economic security in the context of deepening globalization and digitalization. 2nd International Scientific and Practical Conference on Digital Economy (ISCDE 2020). Vol.188-194. <https://doi.org/10.2991/aebmr.k.201205>

8. Б.Исроилов, Ж.Жабборов. // Ўзбекистоннинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда давлат сиёсати ва давлат органларининг роли. Агроилм, 2021 йил, №3.118-120 б.

9. Никитенко, П.Г. Национальная безопасность: теория и практика. — Москва: Наука, 2005. — 276 с.

10. Мелани Свон. Блокчейн: Схема новой экономики. Перевод с английского. М.: Издательство «Олимп-Бизнес», 2017. — 240 с.